

## BUXORO VILOYATI TUPROQLARINING SHO‘RLANISH DARAJALARI VA OLDINI OLIISH YO‘LLARI (Olot tumani misolida)

*Artikova H.T., Sayfiyeva E.*  
*Buxoro davlat universiteti*

**Annotasiya:** Sho‘rlangan tuproqlar haqida, sho‘rlanish tipi, resublikamizda ularning maydoni, jumladan Buxoro viloyati Olot tumanida sho‘rlangan tuproqlar maydoni haqida ma’lumotlar keltirilgan

**Tayanch so‘zlar:** Tuproq, sug‘oriladigan tuproq, sho‘rlanish, sho‘rlanish tipi, sho‘rlanish darajasi.

**Kirish.** Tuman xududida yarim gidromorf va gidromorf tuproqlar asosiy maydonlarda tarqalib umumiy yer fondini tashkil etadi, qaysiki tuproqlarni genetik guruhlar orasida o‘tloqi tuproqlar 51,0 %, o‘tloqi allyuvial tuproqlar 43,9 %, taqir-o‘tloqi tuproqlar 4,0 % ni, o‘tloqi – cho‘l tuproqlar 2,0 % ni tashkil etadi. Bu tuproqlar tumandagi barcha geomorfologik rayonlarda tarqalgan.

Hozirgi vaqtda tuman umumiy yer maydonining 23,29 % sho‘rlanmagan, 58,81 % kam, 14,56 % o‘rtacha va 3,33 % kuchli va juda kuchli darajada sho‘rlangan yer maydonlari tashkil etadi.

Olot tumanidagi barcha massivlarda tarqalgan tuproqlar gumus bilan asosan juda kam (1% gacha) va kam (1,1-2,0%) darajada ta‘minlanganligi kuzatildi.

Tumanda tarqalgan tuproqlarda 1% gacha bo‘lgan gumus bilan ta‘minlangan maydonlar 97,4 % ni, 1,1-2 % gacha bo‘lgan maydonlar esa 2,6 % ni tashkil qilishi kuzatildi. Bu esa mahalliy va noan‘anaviy o‘g‘itlardan oqilona foydalanishni ta‘qazo etadi.

Suvli so‘rim natijalariga ko‘ra o‘tloqi tuproqlari sho‘rlanmagan kuchsiz, o‘rtacha, kuchli darajada sho‘rlangan ayirmalaridan iborat. SHO‘rlanish ximizmiga ko‘ra, xlorid-sulfatli va sulfatli sho‘rlanish tiplaridan iborat.

Tumanda joylashgan barcha massivlarda tarqalgan sug‘oriladigan o‘tloqi, taqir o‘tloqi, cho‘l-o‘tloqi va o‘tloqi allyuvial tuproqlar tarkibida gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdorlari yuqori, ya‘ni haydov qatlamlaridan quyi qatlamlar tomon kamayib borish qonuniyatiga bo‘ysunishi qayd qilindi. Buning asosiy sabablaridan biri antropogen ta‘sir. Chunki, yillar davomida sug‘orish, agrotexnik tadbirlar natijasida yuqori qatlamlardan quyi qatlamlar tomon yuvilgan. Shuning natijasida mazkur qonuniyat kelib chiqqan.

Sho‘rlanish sug‘oriladigan yerlar unumdorligi va maxsuldorligi hamda ekologik – meliorativ holati hisoblanib, bu jarayon joyning (massivlarning) reliefi, geomorfologik-litologik tuzilishi, tuproq-iqlim va inson-xo‘jalik sharoitlariga bog‘liq. Ayniqsa, yer osti grunt suvlarining sho‘rlanishining halq xo‘jaligiga yetkazadigan zarari nihoyatda katta bo‘lib, kuchsiz sho‘rlangan yerlarda paxta hosilini 20-30%, o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda 40-60%, kuchli sho‘rlangan yerlarda 80% gacha kamayishi, o‘ta kuchli yoppasiga sho‘rlangan va sho‘rxoklashgan yerlarda esa g‘o‘za nihollari birinchi sug‘orishdayoq to‘la nobud bo‘lishi ko‘p sonli tadqiqotlar va dala tajribalarida o‘z isbotini topgan.

1-jadval

### Olot tumani sug‘oriladigan tuproqlardagi suvda oson eruvchi tuzlar miqdori, sho‘rlanish darajasi va tiplari, %

Ke sm a №	Qatla m chuqu rligi, s m	Quruq qoldiq	Cl	SO <sub>4</sub>	SHo‘rlanish	
					tipi	darajasi

<b>Sugoriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar</b>						
1	0-32	0,280	0,021	0,138	X-S	Kuchsiz shurlangan
	32-50	0,315	0,014	0,152	X-S	Kuchsiz shurlangan
	50-85	0,365	0,017	0,193	X-S	Kuchsiz shurlangan
	85-115	0,315	0,010	0,158	X-S	Kuchsiz shurlangan
3	0-24	0,540	0,052	0,278	X-S	O'rta sho'rlangan
	24-49	0,570	0,084	0,271	X-S	O'rta sho'rlangan
	49-87	0,350	0,038	0,144	X-S	O'rta sho'rlangan
	87-147	0,305	0,035	0,134	X-S	O'rta sho'rlangan

Xulosa. 1-kesma o'tloqi tuproqlari asosan o'rta sho'rlangan ayirmalardan iborat bo'lib tuproq profilidagi tuzlarning umumiy miqdori 0,305-0,570 % ni shundan xlor ioni miqdori 0,035-0,084 % ni tashkil etadi, sho'rlanish tipi xlorid-sulfatli. (1-jadval). SHO'rlanish ximizimiga ko'ra, tuproqlar xlorid-sulfatli sho'rlanishdan iborat.

Buxoro viloyati Olot tumani sug'oriladigan o'tloqi tuproqlari qishloq xo'jaligida foydalanishda alohida e'tibor berib ilmiy tavsiyalar bo'yicha foydalanish, sug'orishning yangi texnologiyalarini joriy etish lozim. Qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarni ekin turi va qo'llash muddat va me'yorlariga ham rioya etish talab etiladi. Aks holda tuproqning ikkilamchi sho'rlanishga olib kelishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 iyun PQ-277-sonli «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6058690>
2. Artikova H.T., Karimov E.Q., Nazarova S.M. Salimova H.H. Buxoro vohasi sho'rlangan tuproqlari va ularning holatini yaxshilash. "Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi". Jurnal. №3/2017 (sentyabr) b.7- 10.
3. Artikova H.T., Salimova H.X.. Buxoro viloyati sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holati va unga ta'sir etuvchi omillar. Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi. –Xorazm, - 2021. - №8, - B. 52.